



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	



INKLYUZIV TA'LIM: MOHIYATI, TAMOYILLARI

Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna
PhD, Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyati, uning nazariy-huquqiy asoslari va tarixiy shakllanish bosqichlari yoritilgan. YUNESKOning 1994-yilgi Salamanka deklaratsiyasidan boshlab shakllangan xalqaro me'yoriy hujjatlar tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida qabul qilingan qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar (jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda 2020-2025-yillarga mo'ljallangan Konsepsiya) ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, teng huquqlilik, alohida ta'lim ehtiyojlari, Salamanka deklaratsiyasi, differensial yondashuv, Universal Ta'lim Dizayni (UDL), chet tili ta'limi, ta'limda kamsitilmaslik.

Abstract: This article examines the essence of inclusive education as one of the relevant areas of modern pedagogy, as well as its theoretical and legal foundations and stages of historical development. International regulatory documents developed since the 1994 UNESCO Salamanca Declaration are analyzed, and the laws and regulatory legal documents adopted in the Republic of Uzbekistan for the development of inclusive education (including the Law "On Education" and the Concept for 2020-2025) are reviewed.

Key words: inclusive education, equal rights, special educational needs, Salamanca Declaration, differentiated approach, Universal Design for Learning (UDL), foreign language education, non-discrimination in education.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность понятия инклюзивного образования как одного из актуальных направлений современной педагогической науки, а также освещаются его теоретико-правовые основы и этапы исторического становления. Анализируются международные нормативные документы, сформировавшиеся начиная с Саламанкской декларации ЮНЕСКО 1994 года, а также рассматриваются законы и нормативно-правовые документы, принятые в Республике Узбекистан в целях развития инклюзивного образования (в том числе Закон "Об образовании" и Концепция, рассчитанная на 2020-2025 годы).

Ключевые слова: инклюзивное образование, равноправие, особые образовательные потребности, Саламанкская декларация, дифференцированный подход, универсальный дизайн обучения (UDL), обучение иностранному языку, недискриминация в образовании.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri barcha fuqarolar, jumladan, jismoniy, aqliy yoki sensor rivojlanishida alohida ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashdir. Ta'limda teng huquqlilik va adolat g'oyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro pedagogik fikrning markaziy mavzularidan biriga aylandi, natijada "inklyuziv ta'lim" tushunchasi shakllandi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'yicha millionlab bolalar va yoshlar jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki qobiliyatidan qat'iy nazar, turli sabablarga ko'ra ta'limdan chetlashtirilgan bo'lib qolmoqda ^[1]. Ushbu holat inklyuziv ta'limni nafaqat nogironligi bo'lgan bolalarni qamrab olish, balki barcha o'quvchilarning xilma-xil ehtiyojlariga javob beruvchi tizimli o'zgarish sifatida talqin etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning huquqlarini ta'minlash yo'nalishida bir qator muhim qadamlar qo'yilmoqda. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim tamoyillarining amaliyotga, jumladan, chet tili o'qitish jarayoniga tatbiq etilishi hali yetarlicha o'rganilmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi - inklyuziv ta'lim tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, uning O'zbekistondagi huquqiy-me'yoriy holatini tahlil qilish hamda chet tili ta'limi kontekstida qo'llanilishi imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha inclusive so'zidan olingan bo'lib, "o'z ichiga oluvchi" degan ma'noni anglatadi. Inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishda Mel Ainscow, Tony Booth va Lani Florian kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

Xususan, M. Ainscow inklyuziv ta'limni barcha o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirish va ularning o'qishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida talqin qiladi.

T. Booth va M. Ainscowning qarashlarida esa inklyuziv ta'lim maktab madaniyati, ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotni o'zaro uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi tarixiy jihatdan maxsus ta'lim (special education) va integratsiyalashgan ta'lim (integrated education) bosqichlaridan o'tib shakllangan. Agar maxsus ta'lim alohida ehtiyojli bolalarni ommaviy maktablardan ajratilgan holda o'qitishni nazarda tutgan bo'lsa, integratsiya bosqichida bunday bolalar ommaviy maktabga "moslashtirilgan" holda qabul qilingan.

L. Florianning inklyuziv pedagogikaga oid qarashlarida esa asosiy e'tibor ayrim o'quvchilarni mavjud ta'lim tizimiga moslashtirishga emas, balki pedagogik imkoniyatlarni barcha o'quvchilar uchun kengaytirishga qaratiladi.

Inklyuziv ta'limning institutsional rivojlanishida 1994-yil 7-10-iyun kunlari Ispaniyaning Salamanka shahrida o'tkazilgan Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Unda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasi va Harakat dasturida bolalarning mavjud qiyinchiliklari yoki individual farqlaridan qat'iy nazar, imkon qadar birgalikda ta'lim olishi tamoyili ilgari surildi^[3;4]. Keyinchalik YUNESKO tomonidan inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning xilma-xilligiga javob berish, ularning ta'lim va jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish hamda ta'limdan chetlanishni kamaytirishga qaratilgan jarayon sifatida izohlandi^[5].

Zamonaviy ilmiy-pedagogik qarashlarni umumlashtirish asosida inklyuziv ta'limning teng huquqlilik va adolat, xilma-xillikni ta'limiy resurs sifatida qabul qilish, tizimli o'zgarish, ishtirok va hamkorlik kabi asosiy tamoyillari ajratiladi^[5;6].

M. Ainscow va T. Boothning yondashuvlari ham ta'limdagi xilma-xillikni muammo sifatida emas, balki maktab va pedagogik amaliyotni rivojlantirish imkoniyati sifatida ko'rishga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim o'quv dasturlari, pedagogik metodlar, baholash vositalari, ta'lim muassasalarining infratuzilmasi hamda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini barcha o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta'limning nazariy-huquqiy asoslari, asosiy tamoyillari hamda chet tili ta'limida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida inklyuziv ta'limga oid xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy-pedagogik adabiyotlar hamda zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Shuningdek, Universal Ta'lim Dizayni (UDL), differensial ta'lim va hamkorlikdagi o'qitish yondashuvlarining inklyuziv chet tili ta'limidagi pedagogik imkoniyatlari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishga doir xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish so'nggi o'n yillikda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5270-son¹ Farmoni hamda 2019-yil 29-apreldagi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlovchi PF-5712-son² Farmoni ushbu yo'nalishdagi dastlabki muhim huquqiy hujjatlar sirasiga kiradi^[7].

2020-yil 24-sentabrdan kuchga kirgan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi bevosita inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib, unda jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan ta'lim jarayonida har qanday kamsitishni istisno etuvchi teng huquqli munosabatda bo'lish talab etiladi^[7;8]. Shu bilan birga, qonun loyihasi muhokamasi jarayonida bir qator ekspertlar, jumladan, O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi vakillari, moddada inklyuziv ta'limning aniq ta'rifi berilmaganligini tanqid qilib, buni qonun matniga kiritish zarurligini ta'kidlagan edilar^[8].

Qonun talablarini amalga oshirish maqsadida 2020-yil 13-oktabrda Prezidentning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-

1 <https://lex.uz/docs/-3436192>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>



son³ qarori va unga ilova sifatida “2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Konsepsiyada alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar ta’lim oladigan muassasalar binolariga qo’yiladigan talablarni ishlab chiqish, ularni zarur metodik adabiyotlar va jihozlar bilan ta’minlash, shuningdek, maxsus pedagoglar va tyutorlar tayyorlash kabi vazifalar belgilangan ^[9; 10]. Amaliyotda umumta’lim maktablarida o’quvchi va ota-onalar ishtirokida individual o’quv dasturlari ishlab chiqilishi, shuningdek, pedagogika yo’nalishi talabalarining tyutor sifatida ixtiyoriy asosda jalb etilishi nazarda tutilgan ^[10].

Shunga qaramay, mahalliy tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, inklyuziv ta’limni amalga oshirishda me’yoriy-huquqiy baza bilan real amaliyot o’rtasida ma’lum tafovutlar saqlanib qolmoqda: malakali mutaxassislarning yetishmasligi, ta’lim muassasalarining moslashtirilgan infratuzilmaga ega emasligi va jamiyatda inklyuziv qadriyatlarga nisbatan yetarli tayyorgarlikning mavjud emasligi shular jumlasidandir ^[11].

Inklyuziv ta’lim tamoyillari chet tili, xususan, ingliz tili o’qitish jarayonida o’ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki til darsi tabiatan turli xil eshitish, ko’rish, kognitiv va lingvistik ehtiyojga ega o’quvchilarni birlashtiradi. Xorijiy tadqiqotlarda bu boradagi bir qator metodik yondashuvlar tavsifiya etiladi:

1. **Universal Ta’lim Dizayni (Universal Design for Learning, UDL)** - darsni boshidanoq turli idrok kanallariga (eshitish, ko’rish, amaliy faoliyat) mo’ljallab loyihalash, masalan, topshiriqlarni yozma va audio shaklda taqdim etish yoki o’quvchiga bilimni namoyish etishning bir necha usulini (og’zaki, yozma, vizual) tanlash imkoniyatini berish ^[12];
2. **Differensial (tabaqalashtirilgan) ta’lim** - bir xil mavzu doirasida turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar va qo’llab-quvvatlash vositalarini taqdim etish;
3. **Madaniyatga hurmat asosidagi (culturally responsive) o’qitish** - o’quv matn va mavzularini o’quvchilarning til va madaniy tajribasi bilan bog’lash ^[12];
4. **Hamkorlikdagi (kooperativ) o’qitish va o’zaro yordam (peer-tutoring) usullari** – eshitish qobiliyati cheklangan yoki boshqa alohida ehtiyojli o’quvchilar ishtirok etgan sinflarda samarali natija berishi aniqlangan ^[13; 14].

Bir qator tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ingliz tili o’qituvchilari amaliyotda ko’proq muammoga, ya’ni maxsus tayyorgarlikning yetarli emasligi, moslashtirilgan o’quv materiallari va texnik vositalarning tanqisligi, shuningdek, ota-onalar va jamiyat tomonidan qo’llab-quvvatlashning yetarli emasligiga - duch kelishadi ^[13; 15]. Shu bilan birga, o’qituvchining inklyuziv qadriyatlarga ijobiy munosabati va kasbiy vakolatligi inklyuziv amaliyotni muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy omili sifatida qayd etiladi ^[15].

O’zbekiston sharoitida ingliz tili o’qitish metodikasini takomillashtirishda ushbu xalqaro tajribadan foydalanish, xususan, bo’lajak til o’qituvchilarini tayyorlash dasturlariga inklyuziv pedagogika asoslarini kiritish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim - zamonaviy ta’lim tizimining nafaqat huquqiy, balki chuqur pedagogik-falsafiy mazmunga ega bo’lgan yo’nalishi bo’lib, u barcha o’quvchilarning xilma-xilligini kamchilik emas, balki ta’lim jarayonini boyituvchi omil sifatida talqin etishga asoslanadi. O’zbekiston Respublikasida so’nggi yillarda ushbu sohada qabul qilingan qonun va me’yoriy hujjatlar muhim huquqiy asos yaratgan bo’lsa-da, ularni amaliyotga to’liq tatbiq etish uchun pedagog kadrlarni maxsus tayyorlash, o’quv-metodik ta’minotni yaxshilash va ta’lim muassasalarining infratuzilmasini moslashtirish borasida izchil ishlar davom ettirilishi zarur. Xususan, chet tili ta’limi sohasida Universal Ta’lim Dizayni va differensial yondashuv kabi metodlarni bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash dasturlariga tizimli ravishda kiritish inklyuziv muhitni shakllantirishning muhim omili bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. UNESCO. Inclusion in education. - URL: <https://www.unesco.org/en/inclusion-education>
2. Drawing Science: an interdisciplinary, playful, and inclusive proposal // arXiv preprint, 2021. - URL: <https://arxiv.org/pdf/2109.10748>
3. UNESCO (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. - Paris: UNESCO.
4. Celebrating inclusion in education: 30th Anniversary of Salamanca // UNESCO. - URL: <https://www.unesco.org/en/articles/celebrating-inclusion-education-30th-anniversary-salamanca-statement>
5. UNESCO. Inclusion in education: what you need to know. - URL: <https://www.unesco.org/en/inclusion-education/need-know>

3 <https://lex.uz/docs/-5044711>



6. What is an inclusive education? // Additio App. - URL: <https://additioapp.com/en/what-is-an-inclusive-education/>
7. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar (taqdimot materiali, TIIAME). - URL: <https://staff.tiiame.uz/storage/users/435/presentations/xJJryT8TC9bxgbzqdHiLPaq9IGUzrcggasSj97O.pdf>
8. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak? // Gazeta.uz, 2020-yil 9-iyun. - URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori. - URL: <https://lex.uz/docs/-5044711>
10. 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi (PQ-4860-son Qarorga 1-ilova). - URL: <https://lex.uz/mact/-5044711>
11. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va istiqbollari // Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarnomasi. - URL: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/747/531/1275
12. Inclusive teaching: methods, strategies, and real impact // TEFL Institute Blog. - URL: <https://teflinstitute.com/blog/inclusive-teaching-methods-strategies-and-real-impact/>
13. Fulfilling the Needs of Diverse Students: Teaching Strategies for EFL Inclusive Classrooms // ResearchGate. - URL: <https://www.researchgate.net/publication/338716068>
14. Teaching Strategies for EFL Inclusive Education: A Study of Hearing-Impaired Students // JETAL: Journal of English Teaching & Applied Linguistics. -URL: <https://jurnal.uhn.ac.id/index.php/jetal/article/view/2576>
15. A Guideline for the Use of Recent Inclusive Practices in EFL Higher Education Contexts // ResearchGate. - URL: <https://www.researchgate.net/publication/381848556>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.